



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 15 - aprel

VI-84-52-7-92-K/23

Oqdaryo tumani hokimligi

2023-yil 1-mavsumda g‘olib deb topilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-aprelda “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli qaroriga asosan respublika budjetidan qo‘shimcha mablag‘ ajratiladigan loyihalarni jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentabrdagi “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5250-sonli qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-aprelda “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli qarorlarining ijrosini ta‘minlash maqsadida, Oqdaryo tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i U.Maxmanazarovning hisoboti inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq sakson to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan” mablag‘larni

yo'naltirish bo'yicha Oqdaryo tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i U.Maxmanazarovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining "Ochiq budjet" axborot portali orqali "Tashabbusli budjet" jarayonida fuqarolar tomonidan o'z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya'ni "ovoz berish" jarayoni yakunida aniqlangan "g'olib" takliflar ro'yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni Nizom talablariga muvofiq moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oqdaryo tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Maxmanazarov), tuman G'aznachilik bo'linmasi (O.Raximov)lar "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan jamoatchilik fikri asosida sohalarga ajratilayotgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish bo'yicha tegishli soha rahbarlari bilan birgalikda loyiha smetalarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda moliyalashtirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Majidov) "Oqdaryo ovozi" gazetasi tahririyati (Y.Muhammadiyev)ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazish tavsiya etilsin.

5. "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag'lar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilsin va ushbu mablag'larning boshqa maqsadlarga ishlatilishi taqiqlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Qudratov

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining
2023 yil 15 apreldagi
VI-84-52-7-92-K/23-son qaroriga
1-ilova

mln.so'm

Tuman bo'yicha 2023-yil 1-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
"MANZILLI RO'YXAT"

T/r	Taksif ID raqami	Manzili	G'olib taklif ma'lumotlari		Tolagan ovozlari soni	Amalgalashirish-ning dastlabki birlashtirilgan qiymati	Xoqiyatda ajratilgan*	Moliyalashtirish manbai (F.T.J. qo'shimcha amaliy, budget parametrlari)	Byurymachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan hujjatlar	Xarid qilish tartibi-tasmiil turi
			Bahosda saqlovchi	Qisqacha mazmuni							
"Fuqarolar tashabbusi jang'armasi" da shakllangan mablag'					25032	6000,0	6 150,0	x	x	x	
1	0018460008	Oqdaryo tuman Davobud MFY	Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali	Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filialiga qaytib qaytib o'tirish	5201	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Samarqand viloyat hokimligi bazuridagi "Yagona byurymachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
2	0016551008	Oqdaryo tuman Avazali MFY	"Hududiy Elektr tarmoqlari" AJ Samarqand viloyati filiali	Avazali MFY qo'riqchilik qablog'iga transformator TP-250.ambolator va kabellar o'rnatish	4736	450,0	555,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	"Hududiy Elektr tarmoqlari" AJ Samarqand viloyati filiali	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
3	0018005008	Oqdaryo tuman Istiqbol MFY	Oqdaryo tuman Obokolahtirish boshqarmasi	Istiqbol MFY Qo'riqxona qablog'ini ikki yo'larga beton qoplamaga yongirash	4300	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	"Samarqand mintaqaviy yo'llarga byurymachi" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
4	0012320008	Oqdaryo tuman Navoiy MFY	Oqdaryo tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi	Oqdaryo tuman 45-IDUM eski gimnastika zali o'rindan qo'shimcha xona qurish	4216	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Samarqand viloyat hokimligi bazuridagi "Yagona byurymachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
5	0013474008	Oqdaryo tuman Se'fonda MFY	Oqdaryo tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi	Oqdaryo tuman 6-umumta'lim maktabini tamirlash	3313	750	750	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Samarqand viloyat hokimligi bazuridagi "Yagona byurymachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
6	0013042008	Oqdaryo tuman Yangiyo'l MFY	Oqdaryo tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi	Oqdaryo tuman Yangiyo'l MFY dagi 2-umumta'lim maktab binosini ta'mirlash	3266	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Samarqand viloyat hokimligi bazuridagi "Yagona byurymachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
Taqsimlanmagan mablag'					0	0	45,0	x	x	x	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-117-sonli qaroriga asosan respublika budgetdan qo'shimcha mablag'					6276	3600	3600	x	x	x	
7	0016422008	Oqdaryo tuman Oqdaryo MFY	Oqdaryo tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi	Oqdaryo tumanidagi 3-umumta'lim maktabini ta'mirlash	2176	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Samarqand viloyat hokimligi bazuridagi "Yagona byurymachi xizmati" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
8	0018923008	Oqdaryo tuman Turon MFY	Oqdaryo tuman Obokolahtirish boshqarmasi	Turon MFY ikki yo'larni asfalt qilish	2068	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	"Samarqand mintaqaviy yo'llarga byurymachi" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash
9	0012476008	Oqdaryo tuman Bozovoy MFY	Oqdaryo tuman Obokolahtirish boshqarmasi	Bozovoy MFY ikki yo'larni asfalt qilish	2032	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	"Samarqand mintaqaviy yo'llarga byurymachi" DUK	Loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi taklifni tanlash